



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT QARZINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIR ETISH MASALALARI

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi
universiteti "Iqtisodiy fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi i.f.b.f.d (Phd)*

Usmonov Shavkatjon Shukurovich.

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

Rashidov Abduraxmon Shavkatovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Bakalavriat fakulteti, Iqtisodiy xavfsizlik yo'nalishining 3-bosqich kursanti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat tashqi qarzining milliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Unda tashqi qarzdan foydalanishning ijobiy jihatlari – investitsion loyihalarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, byudjet taqchilligini qoplash kabi imkoniyatlar yoritilgan. Shu bilan birga, ortiqcha qarz yukining iqtisodiy mustaqillikka, inflyatsiya darajasiga, valuta kursi va kredit reytinglariga salbiy ta'siri, hamda qarzga qaramlik xavfi kabi tahdidlar ham tahlil etilgan. Maqola yakunida barqaror qarz siyosatini yuritish, tashqi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat qarzi, tashqi qarz, iqtisodiy ta'sir, makroiqtisodiyot, byudjet taqchilligi, iqtisodiy xavfsizlik, investitsiya, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, valuta kursi, kredit reytingi.

ВЛИЯНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДОЛГА НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ УЗБЕКИСТАНА



Аннотация: В данной статье рассматривается влияние внешнего государственного долга на национальную экономику. Освещаются положительные стороны использования внешних заимствований, такие как финансирование инвестиционных проектов, развитие инфраструктуры и покрытие бюджетного дефицита. Также анализируются возможные угрозы, связанные с чрезмерной долговой нагрузкой: влияние на экономическую независимость, уровень инфляции, валютный курс и кредитный рейтинг. В заключение статьи предложены рекомендации по ведению устойчивой долговой политики и рациональному использованию внешних финансовых ресурсов.

Ключевые слова: государственный долг, внешний долг, экономическое воздействие, макроэкономика, дефицит бюджета, экономическая безопасность, инвестиции, экономический рост, инфляция, валютный курс, кредитный рейтинг.

THE IMPACT OF PUBLIC DEBT ON ECONOMIC SECURITY IN UZBEKISTAN.

Abstract: This article examines the impact of external public debt on the national economy. It highlights the positive aspects of utilizing external borrowing, such as financing investment projects, developing infrastructure, and covering budget deficits. At the same time, the article analyzes potential threats associated with excessive debt burdens, including impacts on economic independence, inflation rates, exchange rates, and credit ratings. The conclusion provides recommendations for pursuing a sustainable debt policy and making rational use of external financial resources.

Key words: public debt, external debt, economic impact, macroeconomics, budget deficit, economic security, investment, economic growth, inflation, exchange rate, credit rating. investments, environmental policy, energy efficiency.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda davlat qarzi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ko'plab davlatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish yoki inqirozli holatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida ichki va tashqi qarz mablag'laridan foydalanadilar. Davlat qarzining iqtisodiyotga ta'siri murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u bir tomondan investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini bersa, boshqa tomondan — byudjet taqchilligi, inflyatsiya, valuta kursining beqarorlashuvi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois, davlat qarzining optimal darajada boshqarilishi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kelgusi yillarda amalga oshirilayotgan asosiy islohotlarning tub negizida davlat qarzini maqsadli jalb qilish va uning huquqiy normativ asoslarini takomillashtirishga qaratilgan strategik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda davlat qarzining iqtisodiyotga ta'sirini boshqarish va ijobiy yo'nalishga yo'naltirish maqsadida bir qator huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar joriy etilgan. Huquqiy jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi "Davlat qarzi va davlat kafolatlari to'g'risida"gi Qonun asosida davlat qarzini jalb qilish, boshqarish va unga xizmat ko'rsatish tartibi belgilab qo'yilgan. Mazkur qonun orqali qarz mablag'larining maqsadli va samarali yo'naltirilishi, ularning iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Shuningdek, har yili qabul qilinadigan Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun orqali qarz limiti, qarz olish manbalari va ustuvor yo'nalishlar belgilanadi. Buni "2023 yildan buyon tashqi qarz miqdorini parlamentimiz belgilab kelmoqda" — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidladi[1].



Shu asnoda davlat qarzini samarali boshqarish yuzasidan iqtisodiy mexanizmlar alohida o'rin egallaydi. Bu esa davlat qarzining makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sirini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan[2]. Jumladan, qarz portfelining diversifikatsiyasi, tashqi va ichki qarzlar o'rtasidagi muvozanat, qarz foiz stavkalarining qulayligi va qaytarish muddatlarining iqtisodiy siklga mos kelishi hisobga olinadi. Shu bilan birga, Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan inflyatsiya, valuta kursi, kredit reytingi kabi indikatorlar asosida qarz yuki va uning iqtisodiy ta'siri bo'yicha doimiy monitoring olib boriladi. Bu mexanizmlar davlat qarzining xavf-xatarlarini kamaytirib, uni iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi vosita sifatida samarali boshqarishga xizmat qiladi[3].

O'zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida tashqi qarzga nisbatan ehtiyotkor va samarali yondashuv asosiy tamoyil sifatida belgilangan. Strategiyada davlat tashqi qarzining makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash, uni qonunchilikda belgilangan limitlar doirasida ushlab turish va qarz mablag'laridan faqat yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega loyihalar uchun foydalanish zarurligi ta'kidlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Davlat qarzi va uning iqtisodiyotga ta'siri masalasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda doimiy dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu borada mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xalqaro adabiyotlarda, masalan, R. Barro, K. Rogoff, va C. Reinhart kabi olimlar o'z tadqiqotlarida davlat qarzining yuqori darajasi iqtisodiy o'sishga teskari ta'sir ko'rsatishi mumkinligini isbotlashgan[7]. Reinhart va Rogoffning mashhur "This Time is Different" asarida davlat qarzining YaIMga nisbatan 90% dan oshishi iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Jahon banki materiallarida qarz barqarorligi va qarz xizmat ko'rsatish koeffitsientlariga oid metodik yondashuvlar keng yoritilgan.



Mahalliy adabiyotlarda esa iqtisodchi olimlar – A. Hayitov, S. Sultonov, R. Abdullayev va boshqalar tomonidan O‘zbekistonda davlat qarzining tarkibi, uning iqtisodiyotga ta’siri, qarz boshqaruvi mexanizmlari bo‘yicha tahlillar mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan nashr etilgan yillik byudjet tahlillari va iqtisodiy sharhlarda davlat qarzi dinamikasi, tashqi va ichki qarz nisbati, foiz to‘lovlari ulushi, valyuta risklari kabi ko‘rsatkichlar muntazam yoritiladi[4][5].

Tatqiqot metodologiyasi

Maqolada davlat qarzining iqtisodiyotga ta’siri, uning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, hamda davlat qarzi boshqaruvining samaradorligini baholash maqsadida nazariy adabiyotlar tahlil qilindi. Xalqaro iqtisodiy adabiyotlar, shuningdek, O‘zbekistonning davlat qarzi bo‘yicha rasmiy statistikasi va yillik hisobotlar o‘rganildi. Bu bosqichda iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, valuta kursi, kredit reytingi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan davlat qarzi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Tadqiqot davomida statistik tahlil, empirik tahlil (korrelyatsion tahlil), komparativ tahlil, case study, sotsiologik va ekspert baholash usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

2024 yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonning umumiy tashqi qarz hajmi 64,1 mlrd dollarni (YaIMga nisbatan 55,7 foiz) tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 33,9 mlrd dollar (YaIMga nisbatan 29,5 foiz) hamda korporativ tashqi qarz hajmi 30,2 mlrd dollarga teng bo‘ldi. 2024 yilda joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi 5,7 mlrd dollarni tashkil qilgan (2023 yilda 7,8 mlrd dollar). Bunga savdo balansi manfiy sal’dosining kamayishi bilan birga ikkilamchi daromadlar komponenti bo‘yicha kelib tushgan joriy transfertlar hajmining sezilarli darajada ko‘payishi ta’sir ko‘rsatgan.

Jumladan, eksportning importga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘sishi natijasida savdo balansining manfiy sal’dosi (17,4 mlrd dollar) deyarli 2023 yil



darajasida saqlanib qolgan.

2024 yilda xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi va norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ko'payishi natijasida jami eksport hajmi 2023 yilga nisbatan 4,5 foizga o'sib, 26,2 mlrd dollarni tashkil qildi (oltinsiz – 18,7 mlrd dollar, o'sish 11 foiz). Asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari tahliliga ko'ra, 2024 yil davomida oltinning o'rtacha narxi 2023 yil ko'rsatkichiga nisbatan 23 foizga, kumush narxi 21 foizga, mis narxi 8 foizga hamda uran narxi 42 foizga o'sgan bo'lsa, to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi – paxtaning jahon narxi 9 foizga pasaygan.

2024 yilda jami import hajmi 2023 yilga nisbatan 2,3 foizga ko'payib, 43,6 mlrd dollarga yetgan. Bu 2023 yilda ayrim turdagi tovarlarning bir martalik yirik importi 2024 yil davomida sezilarli darajada qisqargani bilan izohlanadi. Shunga qaramay, mamlakatda investisiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida xorijdan energoresurslar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlarining keltirilishi davom etgan.

2024 yilda xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi va norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ko'payishi natijasida jami eksport hajmi 2023 yilga nisbatan 4,5 foizga o'sib, 26,2 mlrd dollarni tashkil qildi (oltinsiz – 18,7 mlrd dollar, o'sish 11 foiz). Asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari tahliliga ko'ra, 2024 yil davomida oltinning o'rtacha narxi 2023 yil ko'rsatkichiga nisbatan 23 foizga, kumush narxi 21 foizga, mis narxi 8 foizga hamda uran narxi 42 foizga o'sgan bo'lsa, to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi – paxtaning jahon narxi 9 foizga pasaygan.

Jumladan, 2024 yil davomida mamlakatga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalarning sof kiritilishi 2023 yilga nisbatan 32 foizga o'sib, 2,8 mlrd dollarga teng bo'lgan. Portfel' investisiyalarning sof jalb qilinishi asosan xalqaro obligasiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga 3,1 barobarga ko'payib, 3,1 mlrd



dollarni tashkil qilgan. Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2024 yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisob manfiy sal'dosi 7,4 mlrd dollarni tashkil etgan.

Hisobot davrida xalqaro zaxira aktivlarining xorijiy valyutadagi qismi 734 mln dollarga qisqarishi kuzatilgan. Biroq oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'I 2024 yil boshiga nisbatan qariyb 6,6 mlrd dollarga ko'payib, 2025 yilning 1 yanvar' holatiga 41,2 mlrd dollarni tashkil qilgan.

2024 yil yakuniga ko'ra, to'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning sof xalqaro investisiyaviy mavqei joriy yil boshiga nisbatan 11 foizga mustahkamlanib, 2025 yil 1 yanvar' holatiga 13,7 mlrd dollarga yetgan.

Bunda rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 11,8 mlrd dollarga (hisobot yili boshiga nisbatan o'sish 14 foiz) oshgan bo'lsa, tashqi majburiyatlari hajmi 10,4 mlrd dollarga (o'sish 14 foiz) ko'paygan. Hisobot davri yakuniga ko'ra, umumiy tashqi qarz hajmi 64,1 mlrd dollarni (YaIMga nisbatan 55,7 foiz) tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 33,9 mlrd dollar (YaIMga nisbatan 29,5 foiz) hamda korporativ tashqi qarz hajmi 30,2 mlrd dollarga teng bo'lgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohotlari davlat qarzini samarali boshqarish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayon davlat xarajatlarini optimallashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali qarzdin samarali foydalanishni ta'minlashni maqsad qilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat qarzi va iqtisodiy barqarorlikni saqlash borasida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda:

- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash - hukumat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun milliy va xorijiy qarzlarni optimallashtirishga harakat qilmoqda.



Moliya va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun qarzning hajmini va to'lovlarini tartibga solish ishlari olib borilmoqda;

- xalqaro hamkorlikni kengaytirish - O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan yaqin hamkorlikda qarzlar va kreditlar olishda muvozanatni saqlashga intilishlari o'zgarishlarni ta'minlaydi;

- davlat xarajatlarini optimallashtirish: qarzдорlikni kamaytirish maqsadida davlat xarajatlarini samarali boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlar davom etmoqda;

- infratuzilma va investitsiyalarni rivojlantirish - davlat qarzi ko'pincha katta infratuzilma loyihalariga sarflanadi. Bu jarayon iqtisodiy o'sishni va yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlaydi.

XULOSA

Maklakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlatning qarz siyosati jadallik bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga, davlat qarzining salbiy ta'sirini kamaytirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun qat'iy moliyaviy siyosat va strategik qarorlar zarur. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning barqaror o'sishiga va jahon bozoridagi raqobatbardoshligini saqlashga yordam beradi. an oshirish maqsad qilingan bo'lib, bu ekologik barqarorlik va energiya mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar natijasida yashil energetika sohasi xalqaro investitsiyalar jalb etilishi bilan jadallik bilan rivojlanmoqda.

Davlat qarzi bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar, qarzning salbiy ta'sirini kamaytirish va uning samarali boshqarilishini ta'minlash maqsadida quyidagi taklif qilinadi:

- qarzni boshqarishning samarali tizimini joriy etish, qarzni nazorat qilish va uning darajasini boshqarish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqilishi zarur;



- qarzning to'lanish uzluksizligini ta'minlash, qarzni to'lash bo'yicha uzilishlar yoki kechikishlar davlatning moliyaviy imidjiga zarar yetkazishi mumkin;
- davlat xarajatlarini optimallashtirish, xarajatlarni samarali boshqarish orqali qarzning oshirishining oldini olish kerak;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qarz olish va uni qaytarish mexanizmlarining samaradorligini oshirish;
- investitsiyalarni Infratuzilma va ishlab chiqarish sohalariga yo'naltirish, davlat qarzi infratuzilma loyihalari, transport, energetika va ta'lim tizimini rivojlantirishga sarflanishi kerak;
- qarzni oshirishning iqtisodiy ta'sirlarini diqqat bilan kuzatib borish, inflyatsiya va valyuta kursining beqarorligini oldini olish uchun izchil moliyaviy siyosat yuritish;
- davlat qarzining shartlari va foiz stavkalarini yaxshilash maqsadida, davlat iqtisodiyotning holatini inobatga olgan holda qarz olishning eng maqbul shartlarini belgilashi kerak;
- qarzni boshqarish tizimining ochiqligini ta'minlash, davlat qarzi bo'yicha muntazam monitoring o'rnatish va natijalari haqidagi hisobotlarni ommaga taqdim etish lozim;
- xorijiy qarzlarni kamaytirish va ichki moliyaviy manbalarni oshirish uchun davlat tomonidan ichki qarzar bozorini rivojlantirish va mahalliy investorlarni jalb qilish zarur;
- davlat qarzi va moliyaviy boshqaruv bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar bilan ishlash, qarzni boshqarish jarayonida to'g'ri strategiyalarni ishlab chiqishda Tajribali iqtisodchilar va moliyaviy ekspertlarni jalb qilish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 26.12.2025 yil.



2. Aksakova, M. R. (2018). Davlat qarzi va iqtisodiy rivojlanish. Tashkent: Iqtisodiyot va O'zbekiston Universiteti nashriyoti.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash: Islohotlar va yutuqlar. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
4. Sultonov, F. S. (2019). Xalqaro iqtisodiyot va davlat qarzi. Tashkent: Iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar universiteti.
5. Shaykhova, G. F. (2021). Davlat qarzi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti.
6. Jabborov, R. (2017). Moliyaviy boshqaruv: Davlat qarzi va iqtisodiy o'sish. Tashkent: Iqtisodiy ilmiy tadqiqotlar instituti.
7. IMF (International Monetary Fund). (2020). Global Debt Database: Trends and outlooks. IMF Report.
8. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). (2021). Public Debt and its Implications for Economic Growth. OECD Economic Policy Paper No. 25.
9. World Bank. (2019). Debt and Financial Crises: A Global Perspective. World Bank Policy Paper.
10. Alimov, D. Z. (2022). Davlat qarzi va milliy iqtisodiyot: Qarzdan foydalanish va boshqarish. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.
11. Kemp, W. L. (2015). Public Debt and Economic Growth: An Overview of the Literature. Journal of Economic Surveys, 29(4), 782-800
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. www.lex.uz.
13. Rama Rao Karri, Mohammad Hadi Dehghani. Scientometrics and overview of water, environment, and sustainable development goals, in Water, The Environment, and the Sustainable Development Goals, 2024.
<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>